

SHAYBONIYXON TOMONIDAN MOVAROUNNAHRNING ZABT ETILISHI VA SHAYBONIYLAR DAVRIDA MOVAROUNNAHRDA IJTIMOIIY HAYOT

Salimova Farida Sobirjon qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat
Universiteti Tarix Fakulteti 2-kurs magistranti.*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Shayboniylar davrida Buxoro xonligida madaniy va marifiy jarayonlar ustida izlanish olib boriladi. Olingan natijalarga asoslanib, shayboniylarning Movarounnahrdagi bunyodkorlik, ta'lim, ilm-fan va madaniyat sohasida olib borgan ishlari ilmiy adabiyot va manbalar asosida tahlil etiladi va zarur ilmiy xulosalar chiqariladi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится исследование культурно-просветительских процессов в Бухарском ханстве в эпоху Шейбанидов. На основе полученных результатов на основе научной литературы и источников анализируется деятельность Шейбанидов в сфере творчества, образования, науки и культуры в Мавераннахре, а также делаются необходимые научные выводы.

ANNOTATION

This article conducts research on cultural and educational processes in the Bukhara Khanate during the Shaybanid period. Based on the results obtained, the Shaybanids' work in the fields of creativity, education, science and culture in Transoxiana is analyzed based on scientific literature and sources, and the necessary scientific conclusions are drawn.

Kalit so'z: Shayboniyxon, “Shayboniynoma”, “Abdullanoma” Kamoliddin Binoiy, Muhammad Solih, Mulla Shodi, Fazlulloh ibn Ro'zbekxon.

Xalqimiz shunday xalqki, uning asrlar mobaynida qon-qoniga singib ketgan madaniyat, san'at, ilm-fan va adabiyotga bo'lgan oshuftalik, bunyodkorlik, yaratuvchilik, mehnatsevarlik kabi ezgu fazilatlari har qanday davr va har qanday sharoitda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Temuriylar davrida gullab-yashnagan bu sohalar Shayboniylar sulolasi hukumronligida ham yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi.

Buyuk Ipak yo'lining markazida joylashgan Samarqand qadimiy Sharq ilm-fan va madaniyatining tan olingan markazi edi. Aynan, shu shahardan Amir Temur o'z imperiyasini boshqargan.

Shayboniylar sulolasi vakillari avvaliga Samarqandni o‘zlariga poytaxt etdilar, so‘ngra poytaxtni Buxoroga ko‘chiradilar. Shayboniylar sulolasi 1500-1601 yillarda mavjud bo‘lgan. Samarqand ushbu sulola vakillari tomonidan 1501-1533; 1540-1556 yillarda poytaxtga aylantirilgan.

Bu orada alohida ikki xonlik, ya’ni, Samarqand va Buxoro xonliklari faoliyat ko‘rsatishgan. Shayboniylar sulolasi avval Samarqandda, so‘ng Buxoroda, keyin ikki poytaxt alohida holda, oxirida esa yana Buxoroni poytaxt etib hukm surishgan.^[21]

Ubaydulla sulton 1533-yilda oliy hukmdorlik unvonini oladi va 1540-yilgacha, rasman poytaxt Samarqand bo‘lsa-da, davlatni Buxorodan turib boshqaradi^[22]. Shunday bo‘lsa-da Samarqand, davlat poytaxti va hukmron sulolaning eng katta vakili - xon qarorgohi sifatidagi mavqeini saqlab qoldi.

Shayboniylar, keyinchalik poytaxt sifatida Buxoroni tanlagan bo‘lib, aynan qanday omillar bunga sabab bo‘lganligi masalasida tadqiqotchilar orasida yakdillik yo‘q. Shuningdek, geografik jihatdan qulay, mu’tadil iqlimli, qadimdan mashhur sulolalarning poytaxti bo‘lib kelgan Samarqanddek bir joy turib, Shayboniy hukmdorlarning poytaxtni boshqa bir shaharga aynan qanday omillar sabab bo‘lganligi masalasi ham haligacha bahsli mavzu bo‘lib kelmoqda.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra Shayboniylarning o‘z poytaxtini Samarqanddan Buxoroga ko‘chirishlarining zahirida quyidagi omillar yotganligini ilgari surish mumkin:

Birinchidan, poytaxtning ko‘chirilishi Shayboniylar sulolasida qadimgi odatga ko‘ra, hokimiyat boshqaruvchi xonadon sulola a’zolarining mushtarak mulki hisoblanib, davlat boshqaruvida boshboshdoqliklar kuchaygan paytda xonadon vakillarining har qaysisi o‘ziga tegishli ulus (o‘lka, viloyat) markazini poytaxtga aylantirishga harakat qilish odati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Xususan, 1539 yilda Ubaydullaxon vafotidan keyin Buxoro xonligi mayda qismlarga bo‘linib ketadi va mamlakatda qo‘shhokimiyatchilik yuzaga keladi. Ubaydullaxonning o‘g‘li Abdulazizxon (1540-1550) hukmronligi poytaxt Buxoroda davom etadi, Samarqandda esa oliy hukmdor sifatida Ko‘chkinchixonning o‘g‘illari – Abdullaxon I (1541-1541), so‘ngra Abdulatifxon (1541-1551) mustaqillik e’lon qilishadi^[23] va ular Samarqandda turib davlat ishlarini boshqaradilar, Balx va Badaxshonda Shayboniylardan Pirmuhammad va boshqalar amalda mustaqil hukmronlik qila boshlaydilar^[24].

1551-1556 yillari Movarounnahr uchun Shayboniylar o‘rtasidagi kurashda Iskandar sultonning o‘g‘li Abdullaxon II g‘olib chiqib, u Buxoro xonligida o‘z hokimiyatini o‘rnatadi. 1557 yildan boshlab Buxoro uzilkesil xonlik poytaxtiga aylanadi^[25].

Ikkinchidan, islom dinining ilk yoyilish davridan boshlab diniy bilimlarning o‘chog‘i sifatida bilini kelgan Buxoro shahri bu davrda ham nafaqat Movarounnahrda, balki Dashti Qipchoq va atrof hududlarda o‘z dovruq‘iga ega edi.

Temuriylarni mintaqadan quvib chiqarishda bo‘lgani kabi, Safaviylar himoyasida tobora kuchaya boshlagan shia mazhabidan sunniylikni muhofaza qilish g‘oyasini bayroq qilib olgan Shayboniylarning sunniylar orasida yanada ko‘proq e‘tibor qozonishga intilishlari Buxoro shahrining poytaxt sifatida tanlanishga olib kelgan. Ya‘ni ular mafkuraviy ta‘sir o‘tkazish orqali o‘z davlatini yanada mustahkamlashni nazarda tutishgan.

Uchinchidan, Safaviylarni o‘zlariga bosh raqib sifatida ko‘rgan Shayboniylar strategik ehtiyojlardan kelib chiqib, Buxoroni markaz sifatida tanlashgan, ehtimol. Chunki o‘zining geografik joylashuviga ko‘ra, bu yer Safaviylar hududi – Xurosonga nisbatan yaqin hududda joylashgan edi. O‘sha davr an‘anasi bo‘yicha mamlakat tayanchi bo‘lmish qo‘shin poytaxt va uning atroflarida joy olar, bu esa tashqi xavfning oldini olishni ta‘minlar edi.

To‘rtinchidan, Shayboniylar uchun omad keltirgan, pirovardida, ularning davlat sifatida yashab qolishini kafolatlagan jang Shayboniylar – Safaviylar jangi Buxoro yaqinidagi G‘ijduvonda bo‘lib o‘tgan. Bu esa Shayboniylar nazdida Buxoroning qiymati yanada oshishiga olib kelgan.

Beshinchidan, 1512 yildan boshlab Buxoro viloyati noibi bo‘lib kelgan Ubaydulla sulton 1533 yilda Shayboniylar davlatining oliy hukmdori sifatida taxtga o‘tirgan edi. Ubaydulla sulton Samarqanddagi Ko‘chkinchixon avlodlarining qarshiligi sababli oliy hokimiyatni Buxoroda turib boshqara boshlaydi. Buning sabablaridan biri Ubaydullaxonning o‘z merosiy yerlarini saqlab qolishga intilishi bilan izohlanadiki, uning bu hattiharakati (ya‘ni poytaxtni ko‘chirish tadorigi) keyinchalik Abdullaxon II tomonidan amalga oshirilishiga turtki bo‘lgan.

Yettinchidan, poytaxtning Buxoroga ko‘chirilishi Jo‘yboriy shayxlarning ta‘siri ostida amalga oshgan bo‘lishi mumkin. Chunki Shayboniylarning mafakuraviy rahnomalari bo‘lmish mazkur shayxlar toifasi yashaydigan mavzei Buxoroga yaqin joylashgan edi.

Ma‘lumki, Abdullaxon II davrida Shayboniylar poytaxti Samarqanddan Buxoroga butunlay ko‘chirib o‘tilgan bo‘lib, ayni shu paytlarda Shayboniy hukmdorlarga Jo‘yboriy shayxlarning ta‘siri kuchaygan, Abdullaxon va uning otasi Iskandar Sulton juyboriylardan Xoja Islomga murid tushgan edilar^[1].

Moziyga nazar tashlasak, qaysiki davlat hukmdorlarining o‘zlari ham ma‘rifatga intilib, ilm-fan bilan shug‘ullanib, ma‘naviyat ahliga yetarlicha shart-sharoitlar yaratib bergan bo‘lsalar, o‘sha mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy hayoti kundan-kunga rivoj topgan. Bu fikrimizga Shayboniylar sulolasini misol keltirishimiz mumkin.

O‘rta Osiyoning markaz shaharlari hisoblangan Samarqand va Buxoro madrasalarida so‘nggi o‘rta asr jamiyatining ko‘zga ko‘ringan vakillari, hukmdorlar, amaldorlar, ulamoyu fuzalolar Qur‘on, fiqh, hisob, handasa kabi fanlardan ilm oldi.

Xususan Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrni qo‘lga kiritguniga qadar Buxoro madrasalarida qiroat ilmidan saboq olganligi va ushbu sohani mukammal egallaganligi aytib o‘tilgan edi. Demak, Buxoro Dashti Qipchoq aholisi uchun ham ilm- fan va diniy markaz hisoblanib, shu yerda qozoq aholisi uchun din ulamolari tayinlangan. Ko‘chmanchi aholi ayrim diniy masalalar bo‘yicha buxorolik ulamolarga ham murojaat qilishgan.^[2]

XVI asrda badiiy madaniyat sohalari temuriylar davridagi boy madaniy me‘rosga tayangan holda, shayboniylar turmush tarzi an‘analari mujassamligida rivoj topdi. Buxoroga o‘sha davrning allomalari, shoirlari, yetuk olimlari, musiqachilari, naqqosh-xattotlari, me‘morlari, rassomlari va boshqa soha bilimdonlari to‘planib zamonasining ilg‘or ijodiy va ilm salohiyatini ko‘rsatib turdi, badiiy madaniyat rivojiga muhim hissa qo‘shdi.^[3]

Bularning barchasi poytaxt Buxoroning nafaqat iqtisodiy qudrati oshganligi, balki yuksak markaz sifatida tarkib topib, usta-me‘mor va san‘atkorlar maskaniga aylanganligidan dalolat beradi.^[4]

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Shayboniylar sulolasining hukmronlik davrining boshlanishi 1501 yildan deb tarixchilar tomonidan ko‘rsatiladi. “Shayboniylar davrida ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san‘at, me‘morchilik ravnaq topishida sulola vakillarining ibratli shaxsiy ta’sirlari ham zalvorlidir. Mamlakatning turli tomonlaridan taniqli shoir, tarixchi va olimlarning shayboniylardan panoh izlab Buxoroga kelishlari va layoqatlariga qarab xizmat bilan, mavqeilariga qarab mansab hamda uy- joy va yetarlicha mablag‘ bilan ta‘minlanishi, izzat- ikrom topishlarining boisi ham ana shundadir.”^[5] Hukmdorlarning davlat ishlaridan bo‘sh vaqtlarida ilm-fan bilan shug‘ilanishlari diqqatga sazovor hisoblanadi. Shayboniylar sulolasining asoschisi Muhammad Shayboniyxon ham ma‘rifatli hukmdorlardan bo‘lgan, shu bilan birga u XVI asr o‘zbek adabiyotining yetuk ijodkorlaridan biridir.

“Shayboniyxon harbiy yurishlar va davlat ishlari orasida qisqa tanaffuslarda turli fanlar va islomni o‘rganish, tarixiy va she‘riy asarlar bitish bilan shug‘illanadi. O‘z saroyiga ko‘plab tarixchilar, shoirlar, olimlarni jalb etdi. Uning saroyida Kamoliddin Binoiy, Muhammad Solih, Mulla Shodi, Fazlulloh ibn Ro‘zbekxon kabilar panoh topib, o‘z asarlarini yaratdi. Muhammad Shayboniyxon Hirotni qo‘lga kiritgandan so‘ng Kamoliddin Behzod tomonidan chizilgan portreti bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan. Rasmning diqqatga sazovor tomoni xon oldidagi yozuv qurollari bo‘lib, ular hukmdorning ilm-fanga qiziqqani va yozishni yaxshi ko‘rganini ko‘rsatadi.”^[6]

Davr talabiga binoan Shayboniyxon turkiy tildan tashqari fors tilini yaxshi egallagan, she‘riyatga qiziqib, o‘zi she‘rlar yozgan. Xonning baytlari uning atrofdagi mualliflarining asarlarida keltirgan. Xasanxo‘ja Nisoriy o‘zining “Muzakkir al-

axbob” asarida Shayboniyxonning bayt va gʻazallaridan namunalar keltiradi. Xon haqida yozar ekanu: “Yaxshi sheʼrlari bor edi” deb takidlab shunday deb qayd qiladi: “Hazrat Shayx Najmiddin Kubroning vafoti haqida yaxshi aytgan. Tarix:

“oning taʼrixidur shaxi shuxado,
Yana bir alif birla boʻlur ado”.

Muhammad Solih Muhammad Shayboniyxonning sheʼriy asarlarini yuqori baholab, uni yuksak maʼlumotli kishi deb taʼriflaydi. Temuriylar jamiyatiga yaqin shoir sifatida tan olinishini istagan Shayboniyxon oʻz sheʼrlari bitilgan qogʻozlarni odamlar gavjum boʻlgan yerlarda, bozorlarda osib qoʻyishni buyurgan.

Kamoliddin Binoiy va Muhammad Solih Shayboniyxon haqida avtobiografik asarlar yozgan va ularda oʻzlari koʻrgan hamda guvohi boʻlgan voqealarni bayon etgan. Bu asarlar XVI asr Shayboniylar davri tarixini oʻrganishda eng muhim manbalardan hisoblanadi.”^[7]

Misol tariqasida “XVI asr oʻzbek adabiyotining nodir namunalaridan biri boʻlmish “Shayboniynoma” asaridan xonning yuksak ilmi, qurʼonni tilovat qila olishi va sheʼriyat bilan shugʻullanib, nafaqat turkiy, balki forsiy tilda ham ajoyib misralar bita olishi haqidagi maʼlumotlarni keltiramiz: “Ul hazratning (Shayboniyxonning) *Tangri inoyat qilgʻon ilmining tavsifi*:

Har nima xalqqa mushkul boʻlsa,
Ilmdin har nech a soyilboʻlsa,
Ul qilur hal bori mushkullarni
Soqit aylar bori soyillarni.
Ul hazratning Qurʼon oʻqurining rivoyati:
Chun tilovat bila mashgʻul boʻlur,
Ango arvoh muqaddas oʻqilur.
Ul hazrat taʼbining maddohligi:
Sheʼrni xoʻb tanir zavq bila,
Oʻzi ham xoʻb aytur shavq bila.
Turki abyoti erur sharbatinob,
Forsi sheʼrlari ham serob.”^[8]

Misralarning mazmuniga diqqat qiladigan boʻlsak, Shayboniyxon Tangri tomonidan xalqqa qanday masala mushkul boʻlsa, uni oʻz aql- idroki bilan hal qila oladigan, islom dinining muqaddas kitobi- Qurʼonni tilovat qiladigan va sheʼriyat bilan ham shugʻullanib, nafaqat turkiy, balki forsiyda ham ajoyib baytlar bitgan hukmdor sifatida taʼriflanadi.

Shayboniyxon qalamiga mansub sheʼrlar ifoda koʻlaminin kengligi sheʼriy sanʼatlarini mahorat bilan qoʻllangani tasvirning aniq va obrazlilik bilan alohida oʻrin egallaydi. Sheʼrlarni mavzu koʻlami ham keng va rang-barang boʻlib, asosan,

insonning insonga bo‘lgan majoziy ishq Yaratganga bo‘lgan ilohiy ishq talqini bilan uyg‘unlikda ifodalangan.

O‘zi iste’dodli shoir, qiroatxon, musavvir, turli xil hunarlar egasi bo‘lmish Shayboniynon hali Movarounnahrni to‘la qo‘lga kiritmasdan avvalroq Xurosondan kelgan Muhammad Solih, Binoiy kabi fozil kishilarga rag‘bat ko‘rsatgan. Shayboniynon oz fursat (1500- 1510) hukmronlik qilsa-da, ko‘pgina xalq xo‘jalik va me‘morchilik inshootlari qurilishi, ilm- fan ishlari va adabiy muhitga asos solgan. Uning davrida ilmiy, adabiy asarlar yaratildi. Bu qisqa davr ichida matematika, fizika, kimyo, hikmat, handasa fanlaridan tashqari tilshunoslik, tarix sohalari bo‘yicha ham yetuk asarlar yuzaga keldi.”^[9]

Shayboniy hukmdorlar ichida Abdullaxon II tarixda ma‘rifatparvar hukmdor sifatida nom qoldirgan. O‘sha davrda yashab ijod etgan tarixchi Hofiz Tanish Buxoriy shunday ma‘lumotlarni keltiradi: “Fanlar fazilatida hammaga ma‘lum taniqli bo‘lib, saltanat choponi uning bo‘yiga munosib tikilgan edi. Hamma sohalarni adl nuri bilan yoritib, ta‘bining o‘tkirigidan ilmu fanning hamma sohalari unga maftun edi. Zehnining tezligidan g‘arib haqiqatlar va badi‘ ma‘nilarni bayon qilishga qodir edi”^[10]

O‘rta Osiyo xonliklari ichida Buxoro xonligi maktab, madrasalarning ko‘pligi bilan alohida ajralib turgan. Xonlikning yirik ilm- fan markazlaridan Samarqand bo‘lib, bu yerda dunyoviy ilmlar bilan bir qatorda islom dinining hadis, fiqh, tafsir kabi sohalaridan chuqur saboq berilgan.

O‘z davrida Hasanxo‘ja Nisoriy ham “Bu shaharda ko‘plab olim-u fozillar o‘tgan. Samarqand hozir ham ilmlar makonidir. U yerning mavlonolari ko‘pincha haqiqiy ilm bilan shug‘ullanishadi,” - deb qayd etib o‘tadi. Shaharning ilm-ma‘rifat va diniy bilimlar markazi sifatidagi ahamiyati keyingi asrlarda ham saqlanib qoldi. Bunda shahardagi madrasalarning ahamiyati katta bo‘lgan. XVI asrda Buxoroning poytaxt maqomiga ega bo‘lishi natijasida bu shahar nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy markaz sifatida ham yuqori nufuzga ega bo‘ldi.”

Madrasalarda o‘qish muddati cheklanmagan, madrasalarni tamomlash ko‘p hollarda talabalarning iqtidori, mehnatsevarligi va qobiliyatiga bog‘liq bo‘lgan. Madrasalarni bitirgan talaba fors va arab tillarni bilishi, mantiq, boshlang‘ich geometriya va 4 arifmetik amal harakatlarni hamda shariat asoslarini bilishi shart edi. Talabalarga grammatika, fiqh, tafsir, hadis, kalom kabi maxsus fanlar o‘qitilgan.

Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinadiki Buxoro xonligida madrasalar faoliyati o‘rta asrlarda qaror topgan an‘analar asosida takomillashgan. Bu davrda madrasalarning madaniy va ma‘naviy hayotdagi o‘rni yanada kuchaygan. Madrasalar azaldan O‘rta Osiyo xalqlarining ziyoli qatlami shakllanishida oliy dargoh vazifasini bajarib kelgan. Dunyoga mashhur qanchadan- qancha allomalar, olimlar, mutafakkirlar o‘z saboqlarini aynan ana shu dargohlardan olgan va mislsiz ilmiy kashfiyotlarni yaratgan.

XVI asrda yashab, ijod etgan shoirlarning zullisonayn (ikki tilda ijod etuvchi) bo‘lganliklari ham ahamiyatga ega jihatlardan hisoblanib, bu ularning ma’naviy va ilmiy salohiyati naqadar yuqori bo‘lganligidan darak beradi.

Madrasalarda talabalar uchun o‘rnatilgan tartib, qonun-qoidalariga, axloqiy masalalarga qat’iy rioya etishlari talab etilishi muhim omillardan biridir. Negaki, axloq masalasi qadim- qadimdan falsafa ilmining negizida rivojlanib, yillar mobaynida jamiyat muvozanatini birdek tutib turuvchi muqaddas qadriyatlardan biri bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham tolibi ilmlarning axloqsizlik qilishlariga yo‘l qo‘yilmagan. Ichki tartib-qoidalariga darslarga muntazam qatnashish, ya’ni sababsiz dars qoldirmaslik, berilgan topshiriqlarni bajarish kabilar ham kirgan. Agar bularning birortasi bajarilmay qolganda talabaning moddiy jihatdan jazolanishi eng samarali usullardan biri bo‘lgan. Negaki talaba yashab turgan hujrasidan haydalishi va ta’minotning to‘xtatilishini hech qaysi talaba xohlamagan. Bu talabaning o‘qish faoliyati tugashi bilan barobar bo‘lgan.

Tarixchi Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida Abdullaxon II ning madrasasi faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlarni bergan. Madrasada bu davrdagi an’anaga muvofiq islom dini va shariat qoidalariga qat’iy amal qilingan.

Madrasada har doim besh vaqt namoz o‘qilgan, Qur’on oyatlarining qiroat bilan o‘qilishi va olimu fozillar talabalarga sidqidildan saboq bergan. Madrasaga xon tomonidan tayinlangan mudarris ta’lim jarayonini nazorat qilgan va vaqf mulklaridan ham to‘la hissador bo‘lgan. Bu esa bosh mudarrisning qay darajada kata mavqega ega ekanligidan dalolat beradi. [\[11\]](#)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. T.: - O‘qituvchi, 2001, 200-bet.
2. Binoiy K. Shayboniynoma. // O‘zbekiston tarixi. Xrestomatiya. XVI-XIX asrlar. T.: - Fan va texnologiya, 2014, 9, 10, 11-betlar.
3. Fazlulloh ibn Ro‘zbehon. Mehmonnomai Buxoro. // O‘zbekiston tarixi. Xrestomatiya. XVI-XIX asrlar. T.: - Fan va texnologiya, 2014, 30-bet.
4. Muhammad Haydar mirzo. Tarixi Rashidiy. – T.: Sharq, 2010.
5. G‘iyosiddin ibn Xumomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. / Fors tilidan tarjima, kirish so‘z va izohlar muallifi I.Bekjonov. Toshkent: Sharq, 2011.
6. G‘iyosiddin Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. / Fors tilidan tarjima, muqaddima mualliflari J.Hazratqulov, I.Bekjonov. T.: O‘zbekiston, 2013.
7. Zayniddin Vosifiy. Badoe’ ul-vaqoe’. // Fors tilidan N. Norqulov tarjimasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979; XVI-XVII asrlarda rus elchilarining sayohatlari. Maqola ro‘yhatlari. Mas’ul muharrir D.S.Lixachev. –

- M., 1954; Lunin B.V. O‘zbekiston tarixi manbalari. XVI-XIX asr sayohatchilari, jug‘rofiyun olimlari, yozuvchilari. – T., 1988.
8. Djenkinson A. Puteshestvie v Srednyuyu Aziyu. 1558-1560 gg. /Perevod s angliyskogo Yu.V. Gote // Angliyskie puteshestvenniki v Moskovskom gosudarstve v XVI v.–L.: Poligrafkniga, 1937. 167-192.
 9. Ханыков N.V. Opisanie Buxarskogo xanstva. – SPb.: Imperatorskoy Akademii nauk, 1843. – 308 s.; Ostroumov N.P. Narodnoe obrazovanie. Musulmanskije maktaby i rusko-tuzemnyye shkoly v Turkestanskom krae. // Turkestanskiy sbornik, T. 418. - 63 s.; Ostroumov I.K istorii narodnogo obrazovaniya v Turkestanskom krae. Ostroumov N.P. Madrasy v Turkestanskom krae. Jurnal Ministerstva narodnogo prosveteniya. №1, 1907 g. – S.1-58; Kerenskiy F.M. Medrese Turkestanskogo kraya. – SPb., 1892. S. 37;